

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI VA
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
O'RTASIDA AKADEMIK MOBILLIK DASTURLARI BO'YICHA**

HAMKORLIK SHARTNOMASI № 05P-15

“ 30 ” 01 2026-yil

Namangan shahri.

Ushbu shartnoma Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov hamda Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori M.A.Yuldashevlar tomonidan tomonlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni akademik mobillik dasturlarini orqali amalga oshirish yuzasidan tuzildi.

1. Shartnomaning maqsadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli, “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2022-yil 21-iyundagi PQ-289 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori hamda 2025-yil 13-sentabrdagi “Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normative-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 578-son Qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.

2. Shartnoma predmeti

Shartnoma predmetini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 824-son hamda 2025-yil 13-sentabrdagi “Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normative-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 578-son Qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha akademik mobillik dasturlari (talabalar, pedagog-xodimlar almashinuvi), o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda hamkorlik aloqalari tashkil qiladi.

3. Tomonlarning huquqlari

Shartnoma tuzuvchi oliy ta'lim muassasalari quyidagi huquqlarga ega:

- hamkorlikda davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, fanlar bo'yicha o'quv-metodik majmualari ishlab chiqishda ishtirok etish;
- yaratilayotgan darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarni ekspertizasida ishtirok etish;
- shartnoma miqyosida turdosh oliy o'quv yurtlarida o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda amalga oshirayotgan ishlar bilan tanishish va o'zaro tajriba almashinish;
- hamkorlikda xorijiy va mahalliy grant loyihalarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, xalqaro ilmiy seminarlar, konferensiyalar tashkil etish va maqolalar chop etish;
- turdosh oliy ta'lim muassasalarida kelishuv asosida o'zaro professor-o'qituvchilarni malaka oshirish, qayta tayyorlash va stajirovkalarini tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash, amalga oshirish;
- o'zaro kelishuv asosida magistratura va doktoranturada maqsadli kadrlar tayyorlash uchun talabalarni jo'natish;

- o'zaro kelishuv asosida yuqori kurs (bitiruvchi kurs bundan mustasno) talabalarini har o'quv yilining bir yoki ikki semestri muddatiga mos ta'lim shakli va yo'nalishlari bo'yicha akademik mobillik dasturi asosida o'qishga yuborish.

4. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Tomonlar akademik mobillik dasturlari bo'yicha talabalarni o'quv yilining bir semestri muddatiga qabul qiladilar. Tomonlarning kelishuviga ko'ra ushbu muddat yana bir semestrga uzaytirilishi mumkin.

4.2. Ushbu Shartnoma asosida Hamkor OTMda talabalar tomonidan o'rganilgan fanlar, modullar, amaliyotlar, shu jumladan, tegishli ixtisosliklar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) Universitet (Institut) tomonidan tan olinadi, talabalarni o'qitish to'g'risidagi hujjatlarga kiritiladi va ta'lim davomida hisobga olinadi.

4.3. Ushbu Shartnoma akademik mobillik dasturlari (kelishuvlari) doirasida Hamkor OTMda o'qitish va amaliyot o'tash uchun, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlar (ITI)ni olib borish uchun yuborilayotgan talabalar (tadqiqotchilar)ga nisbatan amal qiladi.

4.4. Akademik mobillik dasturlari OTMda tuzilgan talabalar akademik mobilligi bo'yicha ishchi guruh xulosasi hamda uch tomonlama akademik kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

4.5. Akademik mobillik dasturlari doirasida hamkor OTMga yuboriluvchi talabalar soni universitet (institut)ning moddiy-texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib hal etiladi.

4.6. Tomonlar talabalar akademik mobillik dasturi bo'yicha rektor nomiga yozma ravishda ariza bilan murojaat qilganda ularga dasturga bepul kirish imkoniyatini taqdim etadi hamda ushbu shartnomaning 4.1, 4.4 va 4.5-bandlari bo'yicha ishchi guruh xulosasi asosida ishtirokchilarni tanlab olishni amalga oshiradi.

4.7. Tomonlar professor-o'qituvchilar (pedagoglar) va tadqiqotchilarga akademik mobillik dasturi bo'yicha bepul kirish imkoniyatini taqdim etadi.

4.8. Tomonlar akademik mobillik dasturlari ishtirokchilarining o'quv dasturlarini bajarishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

4.9. Tomonlar akademik mobillik dasturlari ishtirokchilari uchun o'qish, yashash joyi (talabalar turar joyi) masalalarini hal qilishda yordam beradi.

4.10. Tomonlar akademik mobillik davri (muddati) tugagandan so'ng o'quv natijalari to'g'risida talabaga belgilangan hujjatlar (akademik ma'lumotnoma, yo'llanma xat, buyruq)ni beradi.

4.11. Tomonlar ushbu shartnomada belgilangan barcha akademik va boshqa qoidalarga rioya qilishlari shart.

4.12. Talabaga o'zlarining OTMlarida o'qish va boshqa zarur harajatlarni to'laydilar hamda qabul qiluvchi OTMda o'qish to'lovlaridan ozod qilinadilar.

4.13. Har bir talaba barcha harajatlarini mustaqil ravishda qoplaydi.

4.14. Talabalar yakuniy tanlovi uchun jo'natuvchi OTM qabul qiluvchi OTMga tanlangan nomzodlar to'g'risida ma'lumot beradi.

4.15. Qabul qiluvchi OTM jo'natuvchi OTM tomonidan tavsiya etilgan talabalar ro'yxatini yakuniy tasdiqlash huquqiy o'zida saqlab beradi.

4.16. Talabalar qabul qiluvchi OTM tomonidan belgilangan barcha akademik va boshqa qoidalar hamda me'yorlarga rioya qilishlari shart.

5. Akademik mobillik doirasida ta'lim faoliyati

5.1. Ushbu Shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va uch yil davomida amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida uzaytirilishi mumkin.

5.2. Ushbu Shartnomaning shartlari o'zaro kelishuvlarga asosan o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Shartnoma bekor qilinishi ko'zda tutilgan hollarda tomonlar kamida bir oy oldin yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

5.3. Shartnoma bekor qilinish sanasidan qat'iy nazar dastur bo'yicha ta'lim olishni boshlagan talaba Shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha o'qishni yakunlaydi.

5.4. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha hamkorlikni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va teng huquqlilik tamoyillari asosida o'zaro munosabatda bo'lishadi.

5.5. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, tomonlar uchun teng qonuniy kuchga egadir.

6. Pedagog-xodimlar almashinuvi

6.1. Tomonlar pedagog-xodimlar o'rtasida o'zaro aloqalarni rivojlantirishga intilishadi. Bu mazkur shartnoma yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatilgan tajriba almashinuvi va hamkorlik masalalarini qamrab oladi.

6.2. Tomonlar pedagog-xodimlar o'rtasidagi akademik mobillikni ma'qullashadi, binobarin, bu mazkur kelishuv shartnomasining 2-bandiga muvofiq tajriba almashish va hamkorlik qilish uchun asos bo'ladi.

6.3. Tomonlar, agar zaruriyat tug'lsa, hamkor OTM pedagog-xodimlarining akademik mobilligi to'g'risidagi qoidalar qo'shimcha shartnoma doirasida alohida mustahkamlanishiga kelishib oladilar.

7. Shartnomani amal qilish muddati va bekor qilish

7.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va imzolangan kundan boshlab besh yil davomida amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida uzaytirilishi mumkin.

7.2. Ushbu shartnomaning shartlari o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin.

7.3. Ushbu shartnoma bo'yicha hamkorlikni amalga oshirishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va teng huquqlilik tamoyillari asosida o'zaro munosabatda bo'lishadi.

7.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan holda yozma ravishda rasmiylashtiriladi va ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.5. Tomonlar akademik mobillik dasturlarining rivojlanishini doimiy nazorat qilish uchun javobgardir. Bunday nazorat o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritish va akademik mobillik sohasida hamkorlikning yangi imkoniyatlarini aniqlash uchun zarurdir.

7.6. Tomonlarning har biri boshqa tomonni 15 kun oldin yozma ravishda xabardor qilib, shartnomani bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, ushbu shartnoma bo'yicha ta'lim olishni boshlagan talabalar uning bekor qilinish sanasidan qat'iy nazar, ushbu shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha o'qishni yakunlaydilar.

7.7. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan bo'lib, teng qonuniy kuchga egadir.

8. Nizolarni hal qilish tartibi

8.1. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar, tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, shartlarini o'zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

8.3. Akademik mobillik dasturlari (talabalar, pedagog-xodimlarni almashinuvi) bo'yicha o'zaro hamkorlik munosabatlarini tashkil etish va o'tkazish majburiyatlarini bajarishda tomonlar mehnat qonunchiligiga binoan ish olib borishlari shart.

9. Tomonlarning manzillari va imzolari:

Namangan shahri, Uychi ko'chasi,
316-uy.

Jizzax shahri Sh.Rashidov ko'chasi,
4-uy.

NAMANGAN DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Rektor:  B.E.Xusanov



Rektor:  M.A.Yuldashev


2026 - yil 01

2026 - yil 31 01

NAMANGAN DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
yuriskonsultanti

JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
yuristkonsultanti

 J.A.Umarov

 A.Alikulov

2026 - yil 30 01

2026 - yil 31 01